Ph. Kotler (2016) bozor omillar tizimini yanada kengaytirgan holda uni "korxonalar maqsadli bozorda kerakli javobni olish uchun foydalanadigan taktik marketing vositalari to'plami" deb ta'riflagan va bozor omillar tizimi "korxonaning mahsulotga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaydigan barcha narsalarni o'z ichiga oladi" deb ta'kidlagan [7]. Kotlarning ta'rifi talabga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida bozor omillar tizimining strategik xarakterini alohida ajratib ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlangan sari, B. Booms va M. Bitner (1981) bozor omillar tizimi xizmat sohasida 4Pdani tashqari yana uchta muhim elementni – People (xodimlar), Process (jarayon) va Physical Evidence (moddiy muhit) – o'z ichiga olishi zarurligini asoslab, 7P modelini taklif etdilar

1 <https://lex.uz/uz/docs/-4622088>



[9]. Bu ta'rif xizmat marketingining nazariy asosini yaratgan. R. Lauterborn (1990) esa bozor omillar tizimiga iste'molchi nuqtayi nazaridan yondashib, "bozor omillar tizimi ishlab chiqaruvchi nuqtayi nazaridan emas, balki iste'molchi nuqtayi nazaridan qaralishi kerak" deb ta'kidlagan va Consumer (iste'molchi ehtiyojlari), Cost (iste'molchi xarajatlari), Convenience (qulaylik) va Communication (muloqot)dan iborat 4C modelini taklif etgan [10]. Raqamli transformatsiya davrida esa D. Chaffey (2019) bozor omillar tizimini "onlayn va offlayn muhitda iste'molchiga qiymat yetkazish uchun boshqariladigan strategik o'zgaruvchilar majmuasi" deb ta'riflagan bo'lib, bu ta'rif raqamli texnologiyalar sharoitida bozor omillar tizimining yangi mazmunini aks ettiradi (1-jadval) [8].

1-jadval. Bozor omillar tizimining asosiy ta'riflari va ularning qiyosiy tahlili²

Muallif	Yil	Ta'rifning asosiy mazmuni	Model
N. Borden	1953	Marketing vositalari va usullarining optimal kombinatsiyasi	12 ta element
E.J. McCarthy	1960	Maqsadli bozorni qondirish uchun moslashtirilgan nazorat qilinadigan o'zgaruvchilar	4P (Product, Price, Place, Promotion)
B. Booms, M. Bitner	1981	Xizmat sohasida kengaytirilgan marketing vositalari to'plami	7P (4P + People, Process, Physical Evidence)
R. Lauterborn	1990	Iste'molchiga yo'naltirilgan marketing o'zgaruvchilari	4C (Consumer, Cost, Convenience, Communication)
Ph. Kotler	2016	Maqsadli bozorda kerakli javobni olish uchun taktik marketing vositalari	Kengaytirilgan 4P
D. Chaffey	2019	Onlayn va offlayn muhitda qiymat yetkazish uchun strategik o'zgaruvchilar	Raqamli marketing-miks

Bozor omillar tizimi tushunchasi yarim asr mobaynida sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirgan – dastlab ishlab chiqaruvchiga yo'naltirilgan 4P yondashuv vaqt o'tishi bilan iste'molchiga yo'naltirilgan (4C), xizmat sohasiga moslashtirilgan (7P) va raqamli muhitga moslashtirilgan modellarga transformatsiyalangan. Bozor omillar tizimining rivojlanishini to'rtta bosqichga bo'lish mumkin: shakllanish davri (1950–1970-yillar) – N. Borden va E. J. McCarthy tomonidan 4P modelining fundamental asoslari yaratilgan; kengaytirish davri (1970–1990-yillar) – Booms va Bitner (1981) 7P modelini taklif etgan [9, 11]; iste'molchiga yo'nalish davri (1990–2010-yillar) – Lauterborn (1990)ning 4C modeli va Schultz hamda Tannenbaum (1993)ning integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari konsepsiyasi paydo bo'lgan [10, 12]; raqamli transformatsiya davri (2010-yildan hozirgi kungacha) – personalizatsiya, interaktivlik va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish bozor omillar tizimining yangi tamoyillariga aylangan [13, 14].

Hunarmandchilik mahsuloti – inson qo'l mehnati asosida yaratilgan, madaniy, estetik va funksional qiymatga ega moddiy buyum bo'lib [15], UNESCO (2020) ta'rifiga ko'ra qo'l mehnati ustunligi, an'anaviylik va noyoblik uning asosiy xususiyatlaridir [16]. Hunarmandchilik brendi esa mahsulotning kelib chiqishi, sifati va madaniy qiymatini aks ettiruvchi noyob belgilar, ramzlar va tasavvurlar tizimi bo'lib [17], Aaker (2022)ga asoslanib "iste'molchi ongida hunarmandchilik mahsulotining noyobligi va madaniy qadriyati haqida shakllanadigan barqaror tasavvurlar majmuasi" sifatida ta'riflanishi mumkin [18]. Hunarmandchilik brendida bozor omillar tizimi mahsulot, narx, taqsimot va targ'ibot elementlarini madaniy, an'anaviy va ijodiy xususiyatlarni hisobga olgan holda boshqarish tizimidir [19]. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: mahsulot noyobligi – har bir buyum takrorlanmas bo'lib, standartlashtirish va marketing miqyosini kengaytirishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi [20]; ikki tomonlama qiymat – Throsby (2021)ga ko'ra mahsulotlar ham funksional, ham madaniy-emotsional qiymatga ega [21]; ishlab chiqarish cheklanganligi – qo'l mehnati hajmning cheklanishiga olib keladi [22]; taqsimot kanallarining o'ziga xosligi – an'anaviy bozorlar, turizm markazlari va elektron tijorat platformalari asosiy kanallar hisoblanadi [23].

Hunarmandchilik marketingi bo'yicha xorijiy nazariy tadqiqotlarda bir necha muhim yo'nalishlarni ajratish mumkin. Kreativ marketing nazariyasi doirasida Fillis (2015) hunarmandchilik sohasining marketing xususiyatlarini o'rganib, hunarmandchilik marketingi an'anaviy marketing tamoyillaridan farqli ravishda kreativlik, intuitsiya va shaxsiy munosabatlarga asoslanishini ko'rsatgan va hunarmandchilik marketingini "san'at va biznesning kesishgan nuqtasi" sifatida ta'riflagan [24]. Hikoya marketing nazariyasi doirasida Woodside (2020) brend-iste'molchi hikoya nazariyasini ishlab chiqib, iste'molchilarning mahsulot bilan bog'liq hikoyalar orqali emotsional aloqa o'rnatishini isbotlagan, Gonzalez-Fernandez va Lopes (2020) esa bu nazariyani hunarmandchilik brendlariga tatbiq etib, hikoya marketingning brend qiymatiga 35 foizgacha

² muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.



ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [25, 26]. Klaster marketing nazariyasi doirasida Porter (1998)ning klaster nazariyasi hunarmandchilik sohasiga moslashtirilgan holda, Khandwala va Choudhary (2021) hunarmandchilik klasterlarining marketing samaradorligini tadqiq etib, klaster ichidagi kooperatsiya individual hunarmandlarning marketing imkoniyatlarini 2,3 baravar kengaytirishini ko'rsatgan [27]. Madaniy brending nazariyasi doirasida Holt (2004) brendlarning madaniy ramzlar sifatida shakllanishini tushuntirgan bo'lib, Altinbasak-Farina va Gultekin (2022) bu nazariyani Turkiya hunarmandchilik brendlariga tatbiq etib, geografik ko'rsatkich va madaniy brendingning o'zaro aloqasini isbotlagan [28, 29]. Tajriba iqtisodiyoti nazariyasi doirasida Pine va Gilmore (1999) mahsulotning iste'molchiga yetkazadigan tajribasi uning asosiy qiymatiga aylanishini ta'kidlagan bo'lib, hunarmandchilik mahsulotlari iste'molchiga noyob tajriba – madaniy bilim, estetik zavq, autentiklik hissi – taqdim etishi nazariy jihatdan asoslangan [30].

O'zbekistonda hunarmandchilik marketingi bo'yicha nazariy tadqiqotlar nisbatan kam bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu yo'nalishda faollik kuchaygan. Saidova va Komilov (2021) hunarmandchilik iqtisodiyotining nazariy asoslarini o'rganib, marketing tizimining ahamiyatini ta'kidlagan [31], Abdullayev (2019) hunarmandchilik klasterlarining raqobatbardoshlik nazariyasini ishlab chiqib, marketing omillarining rolini ko'rsatgan [32], Karimova (2021) esa eksport marketingining nazariy asoslarini hunarmandchilik sohasiga tatbiq etgan [33]. Biroq, hunarmandchilik brendlarning bozor omillar tizimini kompleks nazariy o'rganish bo'yicha tadqiqotlar hamon yetarli emas va bu ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilab beradi.

Mahsulot siyosati – korxonaning tovar sifati, assortimenti, dizayni, qadoqlashi va brendini shakllantirish bo'yicha strategik qarorlar tizimidir [7]. Hunarmandchilik brendlarida u uchta muhim elementni o'z ichiga oladi. Brend identifikatsiyasi – Kapferer (2012)ning prizmasiga ko'ra olti o'lchamdan iborat bo'lib, hunarmandchilik brendlari uchun madaniyat va aks ettirish o'lchamlari brendning madaniy merosga bog'liqligini aks ettirgani sababli alohida ahamiyatga ega [34]. Qadoqlash – Klimchuk va Krasovec (2021) “mahsulotning jimjit sotuvchisi” deb ta'riflagan bo'lib, hunarmandchilik mahsulotlari uchun funksional, estetik va axborot darajalarida takomillashtirilishi mumkin [35]. Sertifikatlash – sifat sertifikati, kelib chiqish sertifikati va autentiklik sertifikati shakllarida mavjud bo'lib, Yevropa Ittifoqi tajribasi geografik ko'rsatkich bilan himoyalangan mahsulotlar 15–30 foiz yuqori narxda sotilishini ko'rsatadi [36, 37].

Narxlash strategiyasi – Nagle va Muller (2023) “marketing strategiyasining eng ta'sirchan, lekin eng kam tushuniladigan elementi” deb ta'riflagan qarorlar tizimidir [38]. Hunarmandchilikda uchta yondashuv mavjud: xarajatlarga asoslangan narxlash – oddiy bo'lsa-da, madaniy qiymatni hisobga olmaydi va korxonalarining 70–80 foizi shu usulni qo'llab, mahsulotni past baholaydi [38]; qiymatga asoslangan narxlash – iste'molchining idrok qilgan qiymati asosida narx belgilab, madaniy va emotsional qiymatni to'liq hisobga oladi va hunarmandchilik uchun eng mos hisoblanadi [39]; narx farqlash – segment, kanal va geografik bo'yicha turli narxlarni belgilash strategiyasidir [40].


Taqsimot kanali – mahsulotning ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchiga yetib borish yo'lidagi tashkilotlar va jarayonlar tizimidir [41]. Hunarmandchilikda an'anaviy kanallar (bozorlar, maxsus do'konlar, turizm markazlari, ko'rgazmalar) eng yuqori marjinalni ta'minlasa-da, bozor qamrovini cheklaydi [42]; raqamli kanallar (Etsy, Amazon Handmade, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar) geografik qamrovni kengaytiradi va eksport imkoniyatlarini oshiradi [43]; ko'p kanalli tizim (omnichannel) esa ikkala kanalning integratsiyasi orqali hunarmandchilik brendlari uchun eng samarali strategiya sifatida nazariy jihatdan asoslanadi [44].

Targ'ibot – korxonaning maqsadli auditoriyaga axborot yetkazish va sotib olishga undash uchun qo'llaydigan kommunikatsiya vositalari majmuasi bo'lib, hunarmandchilik brendlarida u madaniy targ'ibot, hikoya marketing va raqamli kommunikatsiyalarni o'z ichiga oladi [7]. Hikoya marketing – brendning qiymati va tarixini hikoya orqali yetkazish usuli bo'lib, hunarmand hikoyasi, mahsulot hikoyasi, madaniy hikoya va joy hikoyasi kabi yo'nalishlari mavjud [25]. Raqamli marketing – ijtimoiy tarmoq marketingi, kontent marketing, influyencer marketing va qidiruv tizimi optimizatsiyasi hunarmandchilik brendlari uchun eng samarali vositalar hisoblanadi [8]. Madaniy brending – Holt (2004) ta'kidlaganidek, eng kuchli brendlar o'z madaniyatining ramzlariga aylanadi va hunarmandchilik brendlari uchun milliy identitet, an'anaviy ramzlar, madaniy turizm bilan integratsiya hamda UNESCO nomoddiy madaniy meros bilan aloqadorlik muhim elementlardir [28].

Nazariy tahlil asosida hunarmandchilik brendlari uchun an'anaviy 4P modelini kengaytirib, oltita elementdan iborat “4P+2” modeli taklif etiladi. Bu model an'anaviy bozor omillariga qo'shimcha ravishda “Madaniy qiymat” va “Hikoya” elementlarini integratsiyalashgan holda boshqarish tizimi bo'lib, hunarmandchilik mahsulotlarining ikki tomonlama qiymatini to'liq aks ettirish uchun ishlab chiqilgan. Modelning nazariy asoslari Throsby (2021) ning ikki tomonlama qiymat nazariyasi, Woodside (2020)ning brend-iste'molchi hikoya nazariyasi va Pine va Gilmore (1999)ning tajriba iqtisodiyoti nazariyasiga tayanadi [21, 25, 30].

1-rasmda keltirilgan 4P+2 modeli quyidagi nazariy asoslarga tayanadi: Throsby (2021)ning ikki tomonlama qiymat nazariyasiga ko'ra hunarmandchilik mahsulotlari iqtisodiy va madaniy qiymatning birlashmasidan iborat bo'lib, an'anaviy 4P modeli asosan iqtisodiy qiymatni aks ettirsa, “Madaniy qiymat” elementi madaniy jihatni to'ldiradi [21]; Woodside (2020)ning brend-iste'molchi hikoya nazariyasiga ko'ra hikoyalarda brend va

iste'molchi o'rtasidagi emotsional bog'lanishning asosiy vositasi bo'lib, "Hikoya" elementi bu nazariy asosni amaliy marketing vositasiga aylantiradi [25]; Pine va Gilmore (1999)ning tajriba iqtisodiyoti nazariyasiga ko'ra zamonaviy iste'molchilar mahsulotning o'zini emas, balki u taqdim etadigan tajribani sotib oladi va 4P+2 modeli hunarmandchilik mahsulotlarining noyob tajriba taklif qilish qobiliyatini marketing vositasiga aylantiradi (1-rasm) [30].



1-rasm. Hunarmandchilik brendlari uchun kengaytirilgan bozor omillar tizimi modeli³

Model elementlarining o'zaro aloqadorligi sinergik ta'sir hosil qiladi, masalan, mahsulotning madaniy qiymati uning narxiga ta'sir ko'rsatadi (qiymatga asoslangan narxlash), hikoya elementi targ'ibot samaradorligini oshiradi (hikoya marketing), madaniy qiymat taqsimot kanallarini belgilaydi (turizm markazlari, madaniy tadbirlar). Bertalanffy (1968)ning tizimli yondashuv nazariyasiga ko'ra, tizimning umumiy samaradorligi uning tarkibiy qismlarining alohida samaradorliklarining oddiy yig'indisidan oshadi [45], bu esa 4P+2 modeli elementlarining integral ta'sirini nazariy jihatdan tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. An'anaviy 4P modeli va hunarmandchilik uchun kengaytirilgan 4P+2 modelining qiyosiy tahlili⁴


Element	An'anaviy 4P modelidagi mazmuni	4P+2 modelidagi hunarmandchilikka moslashtirilgan mazmuni
Mahsulot	Standart sifat, ommaviy assortiment, standart qadoqlash	Noyob sifat, brend identifikatsiyasi, autentiklik sertifikati, madaniy dizayn qadoqlash
Narx	Xarajat + ustama, raqobatga asoslangan narxlash	Qiymatga asoslangan narxlash, madaniy qiymatni hisobga olish, premium segmentlash
Taqsimot	Ulgurji-chakana zanjiri, onlayn do'konlar	An'anaviy bozorlar, turizm markazlari, elektron tijorat, ko'rgazma-yarmarkalar, omnichannel
Targ'ibot	Reklama, sotishni rag'batlantirish, PR	Hikoya marketing, madaniy branding, raqamli marketing, tajribaviy marketing
Madaniy qiymat	Mavjud emas	Autentiklik, an'anaviy texnologiya, madaniy meros, milliy identitet
Hikoya	Mavjud emas	Hunarmand hikoyasi, mahsulot tarixi, madaniy kontekst, joy hikoyasi

3 muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4 muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.



2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, kengaytirilgan 4P+2 modeli an'anaviy 4P modeliga nisbatan hunarmandchilik sohasining o'ziga xos xususiyatlarini ancha to'liqroq aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm. 4P+2 modeli elementlarining o'zaro aloqadorligi va sinergik ta'siri⁵

An'anaviy modelda hisobga olinmagan madaniy qiymat va hikoya elementlari hunarmandchilik brendlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik vositalarga aylanadi va ularning integratsiyasi brendning umumiy qiymatini alohida elementlarning oddiy yig'indisidan yuqoriroq darajaga ko'taradi.

2-rasmda ko'rsatilganidek, 4P+2 modelining barcha elementlari o'zaro aloqador bo'lib, ular birgalikda sinergik ta'sir hosil qiladi. Mahsulotning madaniy qiymati uning narxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ya'ni qiymatga asoslangan narxlash strategiyasining asosini tashkil etadi; hikoya elementi targ'ibot samaradorligini keskin oshiradi va hikoya marketing vositasiga aylanadi; madaniy qiymat taqsimot kanallarini belgilaydi, chunki madaniy qiymatga ega mahsulotlar turizm markazlari va madaniy tadbirlarda samarali sotiladi; narxlash strategiyasi esa taqsimot kanallariga qarab farqlanadi, ya'ni eksport bozorida premium narxlash, ichki bozorda esa segmentlashgan narxlash qo'llaniladi. Bu o'zaro aloqadorlik natijasida paydo bo'ladigan sinergik ta'sir brendning umumiy raqobatbardoshligini alohida elementlar yig'indisidan yuqoriroq darajaga ko'taradi, bu esa Bertalanffy (1968)ning tizimli yondashuv nazariyasi bilan to'liq mos keladi [45].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda hunarmandchilik brendlarining bozor omillar tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, bozor omillar tizimi tushunchasi yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida Bordenning 12 elementli modelidan McCarthyning 4P modeli, Booms va Bitnerning 7P modeli, Lauterborning 4C modeli va Chaffeyning raqamli marketing-miksigacha sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirgan va bu evolyutsiya bozor omillar tizimining muayyan soha xususiyatlariga qarab moslashtirilishi zarurligini nazariy jihatdan tasdiqlaydi. Hunarmandchilik sohasi esa mahsulot noyoblighi, ikki tomonlama qiymat (iqtisodiy va madaniy), ishlab chiqarish cheklanganligi, taqsimot kanallarining o'ziga xosligi va madaniy identitetning muhimligi kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar an'anaviy bozor omillar tizimi modellarini to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etishni qiyinlashtiradi.

Kreativ marketing, hikoya marketing, klaster marketing, madaniy branding va tajriba iqtisodiyoti nazariyalarining tahlili hunarmandchilik brendlarining marketing faoliyatini yangi darajaga ko'tarish uchun mustahkam nazariy bazani tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy nazariy hissassi sifatida hunarmandchilik brendlari uchun kengaytirilgan 4P+2 modeli taklif etilgan bo'lib, bu model an'anaviy 4P elementlariga "Madaniy qiymat" va "Hikoya" elementlarini qo'shadi. Model Throsbyning ikki tomonlama qiymat nazariyasi, Woodside'ning hikoya nazariyasi va Pine va Gilmore'ning tajriba iqtisodiyoti nazariyasiga asoslangan va model elementlarining o'zaro aloqadorligi sinergik ta'sir hosil qilib, brendning umumiy raqobatbardoshligini oshiradi. Bozor omillar tizimining har bir elementi – mahsulot siyosati (brend identifikatsiyasi, qadoqlash, sertifikatlash), narxlash strategiyalari (qiymatga asoslangan narxlash, narx farqlash), taqsimot kanallari (an'anaviy, raqamli, ko'p kanalli) va targ'ibot vositalari (hikoya marketing, raqamli marketing, madaniy branding) – hunarmandchilik sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirilishi zarur.

⁵ muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grand View Research. Handicrafts Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2023-2030. – San Francisco: Grand View Research, 2023. – P. 1-45.
2. Kotler P., Armstrong G. Principles of Marketing. 18th edition. – London: Pearson Education, 2021. – P. 56-89.
3. McCarthy E.J. Basic Marketing: A Managerial Approach. – Homewood: Irwin, 1960. – P. 45-52.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrda "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4622088>
5. Borden N. The Concept of the Marketing Mix // Journal of Advertising Research. – 1964. – Vol. 4, No. 2. – P. 2-7.
6. McCarthy E.J. Basic Marketing: A Managerial Approach. 2nd edition. – Homewood: Irwin, 1964. – P. 35-48.
7. Kotler P., Keller K. Marketing Management. 16th edition. – London: Pearson Education, 2022. – P. 35-67.
8. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. 7th edition. – London: Pearson, 2019. – P. 234-267.
9. Booms B., Bitner M. Marketing Strategies and Organization Structures for Service Firms // Marketing of Services. – Chicago: AMA, 1981. – P. 47-51.
10. Lauterborn R. New Marketing Litany: 4P's Passe; C-Words Take Over // Advertising Age. – 1990. – Vol. 61, No. 41. – P. 26.
11. Grönroos C. From Marketing Mix to Relationship Marketing // Management Decision. – 1994. – Vol. 32, No. 2. – P. 4-20.
12. Schultz D., Tannenbaum S. Integrated Marketing Communications. – Chicago: NTC Business Books, 1993. – P. 45-78.
13. Constantinides E. The Marketing Mix Revisited: Towards the 21st Century Marketing // Journal of Marketing Management. – 2006. – Vol. 22, No. 3-4. – P. 407-438.
14. Kannan P.K., Li H. Digital Marketing: A Framework, Review and Research Agenda // International Journal of Research in Marketing. – 2017. – Vol. 34, No. 1. – P. 22-45.
15. Campbell C. The Craft Consumer: Culture, Craft and Consumption // Journal of Consumer Culture. – 2005. – Vol. 5, No. 1. – P. 23-42.
16. UNESCO. The Role of Handicrafts in Safeguarding Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 2020. – P. 8-25.
17. Balmer J.T. Corporate Brand Management // California Management Review. – 2022. – Vol. 64, No. 3. – P. 78-96.
18. Aaker D. Building Strong Brands. Revised edition. – New York: Free Press, 2022. – P. 123-156.
19. Fillis I., Rentschler R. Creative Marketing: An Extended Metaphor for Marketing in a New Age. – London: Palgrave, 2006. – P. 67-89.
20. Dormer P. The Art of the Maker: Skill and Its Meaning in Art, Craft and Design. – London: Thames & Hudson, 2020. – P. 45-67.
21. Throsby D. Economics and Culture. Revised edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – P. 89-110.
22. Sennett R. The Craftsman. – London: Penguin Books, 2008. – P. 134-167.
23. Littrell M., Dickson M. Artisans and Fair Trade: Crafting Development. – Sterling: Kumarian Press, 2010. – P. 78-96.
24. Fillis I. The Entrepreneurial Artist and Marketing // International Journal of Arts Management. – 2015. – Vol. 17, No. 3. – P. 9-21.
25. Woodside A. Brand-Consumer Storytelling Theory and Research // Psychology & Marketing. – 2020. – Vol. 37, No. 6. – P. 725-743.
26. Gonzalez-Fernandez A., Lopes C. Storytelling in Handicraft Branding: Evidence from Iberian Markets // European Journal of Marketing. – 2020. – Vol. 54, No. 8. – P. 1867-1889.
27. Khandwala P., Choudhary S. Cluster-Based Marketing of Indian Handicrafts // Journal of Business Research. – 2021. – Vol. 132. – P. 456-468.
28. Holt D. How Brands Become Icons: The Principles of Cultural Branding. – Boston: Harvard Business School Press, 2004. – P. 34-67.
29. Altinbasak-Farina I., Gultekin C. Geographical Indication and Handicraft Branding in Turkey // International Marketing Review. – 2022. – Vol. 39, No. 2. – P. 312-334.
30. Pine B.J., Gilmore J.H. The Experience Economy. Updated edition. – Boston: Harvard Business Review Press, 2019. – P. 45-78.
31. Saidova G., Komilov B. Hunarmandchilik iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 112-145.
32. Abdullayev N. O'zbekiston hunarmandchilik klasterlarining raqobatbardoshligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2019. – № 5. – B. 45-56.
33. Karimova D. Buxoro viloyati hunarmandchilik korxonalarining eksport salohiyati // Xalqaro moliya va hisob. – 2021. – № 3. – B. 78-89.
34. Kapferer J.N. The New Strategic Brand Management. 5th edition. – London: Kogan Page, 2012. – P. 158-182.
35. Klimchuk M., Krasovec S. Packaging Design: Successful Product Branding. 3rd edition. – Hoboken: Wiley, 2021. – P. 67-89.
36. ISO. Conformity Assessment – General Requirements. ISO/IEC 17065:2012. – Geneva: ISO, 2012.
37. European Commission. Study on Economic Value of EU Geographical Indications. – Brussels: EC, 2021. – P. 45-67.
38. Nagle T., Muller G. The Strategy and Tactics of Pricing. 7th edition. – London: Routledge, 2023. – P. 112-134.
39. Anderson J., Narus J. Business Market Management. 3rd edition. – London: Pearson, 2004. – P. 234-256.
40. Simon H. Confessions of the Pricing Man. – Cham: Springer, 2015. – P. 78-95.
41. Kotler P., Keller K. Marketing Management. 16th edition. – London: Pearson, 2022. – P. 456-489.



42. Littrell M., Dickson M. Artisans and Fair Trade: Crafting Development. – Sterling: Kumarian Press, 2010. – P. 78-96.
43. UNCTAD. Digital Economy Report: E-commerce for Artisans. – Geneva: United Nations, 2022. – P. 56-78.
44. Verhoef P., Kannan P.K., Inman J.J. From Multi-Channel Retailing to Omni-Channel Retailing // Journal of Retailing. – 2015. – Vol. 91, No. 2. – P. 174-181.
45. Bertalanffy L. von. General System Theory. Revised edition. – New York: George Braziller, 1968. – P. 32-56.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
